



## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA AGRAR SOHA SO'ZLARI TADQIQI MUAMMOLARI

**Islomova Shahnoza**

TDAU "O'zbek tili va adabiyoti"  
kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Qishloq xo'jaligi sohasida bir qancha muammolar o'z yechimini kutmoqda. Jumladan tuproq ranglari bir qancha chalkashlikka ega. "Sur" rang ham "bo'z" rang ham ma'nodosh (sinonim) so'zlar. Bundan ko'rindaniki, bo'z tuproq(och kulrang), sur tuproq (to'q kulrang). Ko'k rang ham kulrangni bildirsa ham tuproqqa nisbatan ishlatilmaydi, lekin u ham 3 xil rangni bildirganligi sababli turli muammolarni tug'diradi. Buning yechimi esa AQSh tuproqshunoslari tuproq rangi (tusi)ning miqdori shkalasini ishlab chiqib, uni raqamlar vositasida belgilashganidir.

**Kalit so'zlar va so'z birikmalari:** Bo'z, sur, ko'k, tuproqshunos, tuproq ranglari, termin, lug'at.

**Annotatsion:** An number of problemes are waiting to be solved in the fued of agriculture. In particular, the colors of the colors of the soil have some confusion. "Sur" color and grey are synonymous words. It can be seen that gray soil (light gray), brown soil (dark gray). Although brown means gray, it is not used used for soil. But because it also means 3 different colors causes various problems, and the solution is to develop a quantitative scale of soil of soil color like US soil scientists, and define it by means of numbers.

**Key words and phrases:** Gray, brown, blue, soil scientist, soil colors, term, dictionary.

**Аннотация:** В области сельского хозяйства ждет своего решения ряд проблем, среди которых цвет почвы вызывает ряд затруднений. Видно, что серозем (светло-серый), серозем (темно-серый). Синий цвет также означает серый, но для почв он не используется. Но это также вызывает другие проблемы, поскольку представляет три разных цвета. Решение этой проблемы состоит в том, чтобы разработать количественную шкалу цвета (цвета) почвы, как это делают почвоведы США, и определить ее с помощью цифр.

**Ключевые слова и фразы:** Серый, коричневый, синий, почвовед, цвета почвы, термин, словарь.

Qishloq xo'jaligi sohasida tilshunos olimlar tomonidan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmaganligi sababli ko'pgina savollar o'z javobini kutib yotibdi. Sinonim nafaqat lingvistika, balki biologiya (taksonim yoki nomenklatur sinonimlar), botanika (gomotip yoki geterotip sinonimlar), zoologiya, bakteriologiya (ob'ektiv yoki sub'ektiv sinonimlar) va farmatsevtikada (alternativ sinonimlar yoki analog) ham avvaldan mavjud termin bo'lib, muayyan o'simlik, hayvon yoki dori vositasining turli davr va turli tillarda berilgan bir necha nomiga nisbatan ishlatiladi.(4) Yuqoridagi fan tarmoqlai qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liq





O'zbek tilshunosligida soha atamalari sinonimiyasi muammolari qishloq xo'laligi fanlari doktori, professor O.K.Komilov tomonidan quyidagicha izohlanadi. "Lug'atlarni ishslash jarayonida o'zbek tilidagi tuproqshunoslik va agrokimyo atamalarining juda kambag'alligi ma'lum bo'ldi." (2, 3-4)-deydi hamda bo'z tuproq va sur qo'ng'ir tuproq haqidagi chalkash tarjimalarga diqqat qaratadi. Bu fikrni isboti sifatida, O'TIL(5 tomlik)da quyidagicha izohni ko'rishimiz mumkin.

**BO'Z II** Ko'kka moyil oq rang (asosan ot tusi haqida). ◆ Bo'z ot. Bo'z bo'ri. Bo'z to'rg'ay. Bo'z qarchig'ay. Bo'z eshak. Bo'z tuya. ◆ O'ktam yosh bo'z otda iljayib turar edi. Oybek, Oltin vodiydan shabadalar.(1, 399)

**Bo'z tuproq** O'zlashtirilmagan bo'z yer, ekin ekilmagan tuproq yoki kulrang tuproq. ◆ O'rta Osiyo bo'ztuproqlarida karbonatlik darajasi boshqalarga nisbatan kuchliroqdir. M. Bahodirov, Tuproqshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar. (1, 399)

**SUR III** (f- qirmizi, qizil, qizg'ish) 1.ot To'q kulrang, tillarang qorako'l. ◆ Lolalarning unar joyi qir bo'lur, Qorako'lning ko'rkmam turi sur bo'lur. Ya, Qurbon. ◆ Eshik zinapoyasida sur qalpoq kiyib, qizil astarli chakmonining barini kumush kamariga qistirib olgan kishi ko'rindi. "Sharq yulduzi".

2. sft. To'q kulrang tusdagi; surrang. ◆ Sur qorako'l teri. ◆ Butxonaning sur devoriga Har o'tkinchi bir satr bitmish. Mirtemir, "Asarlar"(1, 590)

**KO'K.1.** Tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori. ◆ Ko'k ko'z. Ko'k bo'yoq. ◆ Qo'limizda tovlanar jajji-jajji bayroqlar, Osmonda ko'k, qizil shar yengil uchib o'ynoqlar. I. Muslim.

2. Kul rangidagi, kulrang. ◆ Ko'k bo'ri. Ko'k kaptar. ◆ Qamchi ko'k ot bilan saman toyni yetaklab, daryo tomonga ketdi. H. G'ulom, "Mash'al".

3. s. t. Yashil, sabza. ◆ Ko'k o't. ◆ Qarshimda tebranar ko'k barglar har on Yu, Hamdam. (1, 449-450) "Bu lug'atlardan keltirilgan ma'lumotlar o'zbek tilida hamda rus tilida ham ranglar haqidagi qatiy miqdoriy ko'rsatkichlar yo'qligini ko'rsatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak AQSh tuproqshunoslari keyingi yillarda tuproq rangi (tusi)ning miqdoriy shkalasini ishlab chiqib, uni raqamlar vositasida belgilashni tadbiq etdilar. Bu tajriba o'rganishga loyiq "Sur" rang ham "bo'z" rang ham ma'nodosh(sinonim) so'zlar. (3, 3-4) Bundan ko'rinadiki bo'z tuproq(och kulrang), sur tuproq(to'q kulrang). Ko'k rang ham kulrangni bildirsa ham tuproqqa nisbatan ishlatilmaydi. Lekin u ham 3 xil rangni bildirganligi sababli turli chalkashliklarni





tug'diradi. Avvalo u omonimlik shakli borligi uchun: ko'k(osmon)-ko'k(maysa), bu hol yuz beradi. Dunyoga yuz tutayotga o'zbek tili uchun bu sinonimiya foydadan ko'ra zarar, chalkashlik tug'dirishi tayin, shu tufayli izohli lug'at va tarjima lug'atlarda bir xillikka erishish qiyin. Til semantikasini o'zimiz amallab tushunarmiz, lekin boshqa til vakillari uchun bu hol muammoli. Shu sababli tuproq rangi (tusi)ning miqdoriy shkalasini ishlab chiqib, uni raqamlar vositasida belgilash eng to'g'ri yechim.

Dunyoda yashab qolishning asosiy me'zoni tafakkur ekan, mamlakatimizda ham misli ko'rilmagan tub islohatlar amalga oshilayapdi. Bozor munosabatlariga o'tish madaniyat, fan, sanoat, texnika, qishloq xo'jaligining rivojlanishi o'zbek tili leksikasida ham yangilanishlar bo'lishiga sabab bo'ldi. Yangi so'z va atamalar oqimi tezlashib borqyotgan jarayonda O'TIL garcha 5 tomlik bo'lsa ham so'z va terminlar barchasini o'zida jamlay olmaydi. Qishloq xo'jaligi atamari izohli lug'atini tuzish soha ravnaqini ta'minlovchi risola bo'lishi aniq.

Bu borada lug'atchilik ishlarining jadal sur'atlarda rivojlantirilishi ijobiy natijalarga sabab bo'ladi. Xususan, o'zbek tilining izohli lug'atida sohaga doir terminlar, ayniqsa, jamiyat hayotini tartibga soluvchi soha – huquqshunoslik terminlarining berilishiga oid nazariy-amaliy tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik, balki jamiyat hayoti uchun ham ahamiyatli sabab bo'ladi. (2, 20) Xususan, o'zbek tilining izohli lug'atida sohaga doir terminlar ayniqsa qishliq xo'jaligi terminlarining nazariy-amaliy tadqiqotlari tilshunoslar jamiyat hayoti bilan birgalikda soha mutaxassislar agronomlarning haqiqiy dastiyorli bo'lishi lozim. Chunki O'zbekiston agrar mamlakat, hali imkoniyatlar eshiklarini ochuvchi bilimli yoshlardan haqiqiy qo'llanma kerak.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – "O'zbekiston nashriyoti" Toshkent 2020
2. E.Sobirova "O'zbek tilining izohli lug'atida huquqiy terminlarning berilishi" (PhD) dissertasiya .Toshkent 2022
3. O.K.Komilov Tuproqshunoslik va agrokimyodan ruscha-o'zbekcha lugat" Toshkent-1997
4. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Sinonim\\_\(znacheniya\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Sinonim_(znacheniya))

